

Yerning sun'iy yo'ldoshlari



Yerning sun'iy yo'ldoshlari – bular insonlar tomonidan yaratilgan uchar transport vositalaridir. Ular doimo Yer atrofida aylanadi va turli foydali vazifalarni bajaradi.



Yerning birinchi sun'iy yo'ldoshi Sputnik-1 deb nomlangan. Bu to'rtta uzun antennali metall to'p bo'lgan. Uning vazni atigi 84 kilogrammni tashkil etgan. Ichkarida turli xil asboblarni joylashtirilgan va antennalar parvoz signallarini Yerga uzatgan.



Zamonaviy sun'iy yo'ldoshlar ancha murakkab va ko'proq imkoniyatlarga ega. Hozirgi kunda bir necha ming sun'iy yo'ldosh Yer atrofida aylanmoqda.



Aloqa sun'iy yo'ldoshlari bizga kompyuterlarni o'zaro ulashda, telefonda gaplashishda va teleko'rsatuvlarni tomosha qilishda yordam beradi.



Navigator-sun'iy yo'ldoshlar odamlarga manzilini aniqlashda va kerakli joyga yetib borishlari uchun yo'l topishda yordam beradi.



Siz allaqachon **GPS** tizimi va **GPS navigatorlari** haqida eshitgansiz. Endi ular mobil telefonlar, planshetlar va kompyuterlarda mavjud bo'lib, har kim ular orqali o'z manzilini aniqlashi, kerakli joylar va uylarni qidirishi va ularga yo'l olishi mumkin.



Meteo-sun'iy yo'ldoshlar Yerdagi ob-havoni kuzatib boradi. Ular taqdim etgan ma'lumotlar ertaga yoki bir oy oldin ob-havo prognozini yaratishga yordam beradi.

Ayg'oqchi sun'iy yo'ldoshlar harbiylar tomonidan qo'llaniladi. Ular suhbatlarni kuzatishi va tinglashi, Yerdagi turli obyektlarni suratga olishi mumkin.




Astronomik sun'iy yo'ldoshlar astronom-olimlar tomonidan boshqa sayyoralar, Oy, yulduzlar va Galaktikalarni kuzatish uchun ishlatiladi.



1. Qanday sun'iy yo'ldoshlar ob-havoni oldindan aytib berishga yordam beradi?
2. Qanday sun'iy yo'ldoshlar aloqa va Internet uchun ishlatiladi?
3. GPS tizimi nima uchun kerak?
4. Harbiy maqsadlarda qanday sun'iy yo'ldoshlardan foydalaniladi?
5. Qanday sun'iy yo'ldoshlar astronomlarga osmon jismlarini o'rganishlariga imkon beradi?

Sun'iy yo'ldosh signalni qabul qiladi va uni bir necha marta kuchaytirib, Yerga qayta jo'natadi.



Sun'iy yo'ldosh antennalari signalni qabul qiladi va uni televizorlarga uzatadi.

Signal telestudiyadan sun'iy yo'ldoshga jo'natiladi.

TELESTUDIYA

Ko'p qavatli binolarning tomlari va derazalariga qarasangiz, katta likoplarga o'xshash sun'iy yo'ldosh antennalarini ko'rasiz. Ular koinotdagi aloqa sun'iy yo'ldoshidan signallarni qabul qiladi va odamlarga turli mamlakatlar teleko'rsatuvlarini tomosha qilish imkonini beradi.



Qaysi sun'iy yo'ldosh sizni ko'proq va nima uchun qiziqtirayotgani haqida qisqacha hikoya yozing. Agar sizda shunday imkoniyat bo'lsa, sun'iy yo'ldoshdan qanday foydalangan bo'lar edingiz.

Mening kashfiyotlarim

1

Yer – Quyosh tizimidagi hayot mavjud boʻlgan yagona sayyora.

2

Geografiya – Yerni oʻrganadigan fan.

3

Yer yuzasi suv va quruqlikdan iborat. Yerdagi quruqlikka qaraganda koʻproq suv bor.

4

Yer yuzida oltita materik bor.

5

Koinotda milliardlab yulduzlar va Galaktikalar mavjud.

6

Astronomiya – osmon jismlari haqidagi fan.

7

Oy – Yerning yagona tabiiy yoʻldoshi.

V bob. Yer yuzidagi ajoyib hodisalar

